

**TIL ALOQA VOSITASI SIFATIDA****Kasimova Odinaxon***Qo‘qon universiteti Andijon filiali**Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi, 1-bosqich 25\_02-guruh talabasi***Ilmiy rahbar: Abdirayimov Anvarjon Oribjon o‘g‘li***Qo‘qon universiteti Andijon filiali**Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası  
katta o‘qituvchisi, (PhD)*

**Annotatsiya:** Muloqotning asosiy vositasi tildir. Til muloqot vositasi bo‘lish bilan bir qatorda dunyoni bilish, u haqida axborot to‘plash va uni saqlash, boshqalarga yetkazish vositasi hamdir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab nutqiy faoliyat tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biriga aylandi. Shu sabab dialog, harakatdagi nutqiy aktlar, diskurs bilan bog‘liq nazariy masalalar tadqiqotchilarning e‘tiborini o‘ziga jalb etdi. Muloqot faoliyati ko‘p bosqichli jarayon. Ushbu faoliyatning yuzaga kelishida kognitiv, lisoniy, nutqiy, ijtimoiy harakatlarning bir xilda ishtirok etishini e‘tirof etish lozim.

**Kalit so‘zlar:** muloqot, til, faoliyat, internet tili, nutqiy akt, diskurs, lisoniy nutq, nutqiy vaziyat

**Annotation:** Language is the main means of communication. In addition to serving as a tool of communication, language is also a means of understanding the world, collecting information about it, preserving it, and transmitting it to others. Since the second half of the 20th century, speech activity has become one of the central concepts in linguistics. For this reason, theoretical issues related to dialogue, speech acts in action, and discourse have attracted the attention of researchers. Communicative activity is a multi-stage process. It should be acknowledged that cognitive, linguistic, speech, and social actions equally participate in the emergence of this activity.

**Keywords:** communication, language, activity, internet language, speech act, discourse, linguistic speech, speech situation.

**Аннотация:** Основным средством общения является язык. Наряду с тем, что язык служит средством коммуникации, он также является средством познания мира, сбора информации о нём, её сохранения и передачи другим. Со второй половины XX века речевая деятельность стала одним из основных понятий лингвистики. В связи с этим теоретические вопросы, связанные с диалогом, речевыми актами в действии и дискурсом, привлекли внимание исследователей. Коммуникативная деятельность представляет собой многоэтапный процесс. Следует признать, что в возникновении данной деятельности в равной степени участвуют когнитивные, языковые, речевые и социальные действия.

**Ключевые слова:** коммуникация, язык, деятельность, интернет-язык, речевой акт, дискурс, языковая речь, речевая ситуация.

L.P.Yakubinskiy ham til inson xatti-harakatlarining bir ko‘rinishi ekanligini ta’kidlagan edi. Uning fikricha, til inson organizmining faoliyati kabi psixologik, biologik hamda shu organizmning boshqa organizmlar bilan o‘zaro ta’siri asosiga qurilgan sotsiologik faktlar kabi inson faoliyatining bir ko‘rinishidir.

Muloqot – maqsadli faoliyat va bu faoliyat doirasida bajariladigan har bir harakat ham o‘z maqsadi, intensiyasiga ega. Muloqot maqsadini o‘rganishda asosiy e‘tibor muloqotning kognitiv jarayon ekanligiga qaratiladi. Muloqotga kirishayotgan shaxsning asosiy maqsadi axborotni uzatish emas, balki tinglovchini ushbu maqsadni anglashga undashdir. Aynan shuning uchun ham kommunikativ birlik mazmuni voqelik haqidagi xabar

bilan chegaralanib qolmaydi, balki propozitsiya mazmuniga qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi.

Professor A.Nurmonov til-nutq dixotomiyasi F.de Sossyurgacha V.Gumboldt va yosh grammatikachilar maktabi va ularning g'oyasi Boduen de Kurtenelar tomonidan ilgari surilgan bo'lsa ham, lekin F. de Sossyur uni lingvistik sistemaning markaziga aylantirganligini ta'kidlagani holda nutqiy faoliyat tushunchasi o'zida individuallik va sotsiallik belgilariga ega bo'lgan til-nutq munosabati birligidan tashkil topgan butunlik ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, olim nutqiy faoliyatni til va nutqqa ajratar ekan, bu bilan F. de Sossyur sotsiallikni individuallikdan, muhimni nomuhimdan, qo'shimcha tasodifiy holatlardan farqlanishini bayon qilganliklarini ta'kidlaydi va nutqiy faoliyat til va nutq munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini ilmiy asoslaganligini aytadi.

F.Karimova ta'kidlaganidek, muloqot jarayonidagi ishtirokchilarning ijtimoiy mavqei va maqomlari ham ularning suhbat jarayoniga ta'sir etadi. Bu holat, ayniqsa, o'zbek madaniyatidagi ayol va erkak, ota-ona va farzand, professor-talaba, boshliq-xodim kabi juftliklar muloqoti timsolida o'ziga xos milliy mentallik ifodalaydi. Og'zaki muloqotning amalga oshishida lisoniy omillar bilan bir qatorda nolisoniy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Ayni shunday nolisoniy omillar ijtimoiy vaziyat asosini tashkil etadi. Nutq momenti turli fikr-mulohazalarga boy murakkab jarayondir. Nutqiy jarayonni o'z ichiga olgan nutqiy vaziyatda turli fikr-mulohazalar (muloqot doirasidan chetga chiqmagan holda) bildiriladi. Aynan shunday nutqiy vaziyatlar muloqotning o'ziga xos milliy mental tovlanishini belgilab beradi. Nutqiy muloqot murakkab ijtimoiy munosabat bo'lib, unda kechadigan jarayonlar lingvistik va ekstralingvistik omillarning ta'sirida yuzaga chiqadi. M.N.Krayevskaya bunday vaziyatda nutq momentida ma'lum bir predmetning mavjud/mavjud emasligi, zamonning qisqa/davomiyligi, muloqotchilarning umumiy, moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va ruhiy holati, saviyasi, fahm-farosati, soni, faolligi/passivligi, o'zaro joylashuvi, tanishganlik darajasi, munosabatlar, ijtimoiy kelib chiqishi ham muhim vazifa bajarishini ta'kidlaydi.

Muloqot madaniyati darajasini ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri so'zlashuvchilarning o'zaro munosabatini belgilaydigan ichki madaniyat bo'lsa, ikkinchisi nutq odobiga rioya qilish, "pardali" ifodalarni qo'llash asosida o'z kommunikativ maqsadiga erishish, tilning milliy mental muhit bilan bog'liq holda shakllanishidir. Dunyodagi barcha tillarda tasvirning nozik va yumshoq, nafasat va latofatini ta'minlaydigan evfemik vositalardan unumli foydalanishda ham namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning yana bir tarafa – internet muloqotidagi nutq madaniyatiga e'tibor qaratishimiz kerak, albatta. Nutq madaniyati – bu adabiy tilning og'zaki va yozma shakldagi me'yorlariga ega bo'lish, kommunikativ vazifalarni bajarish uchun muayyan muloqot sharoitida til vositalarini tanlash va ulardan foydalanish qobiliyatidir. Nutq madaniyati uchta komponentni o'z ichiga oladi: me'yoriy (nutqning to'g'riligi), axloqiy (xulq-atvor madaniyati) va kommunikativ (muvaqqatli og'zaki muloqot uchun shartlar).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyati juda past darajada. Insonlarda, jamiyatda internet muloqoti madaniyatini rivojlantirish hozirgi kundagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Inson tilni soddalashtirib, uni ifodalilik, yorqinlik, obrazlilikdan mahrum qilib, asrlar davomida to'plangan milliy madaniyatning ajralmas qismini yo'q qiladi.

### Adabiyotlar

1. Якубинский Л.П. Избранное: Язык и его функционирование. – М.: Наука, 1986. – С. 17.
2. Нурмонов А. Структур тилшунослик илдизлари ва йўналишлари. – Андижон, 2006. – Б. 35.

3. Каримова Ф. Ижтимоий мавқе ва ижтимоий роль тушунчалари талқини. Антропоцентрик тилшунослик: тушунча ва терминлар. – Тошкент: Тубо, 2022. – Б. 150.
4. Қобилова З., Қобулжонова Г. Фонетик воситаларнинг ижтимоий аҳамияти / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. – Андижон, 2014. – Б. 42-43.
5. Краевская М.Н. Ситуация как фактор дифференциации типов устной речи (по материалам советской лингвистической литературы) / Лингвистические особенности научного текста. – М.: Наука, 1981. – С. 122-123.
6. Abdirayimov A.O. O'zbek tilidagi sonlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T., 2025. – 132 b.